



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA 2022-YILDA SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI





MAMLAKATIMIZDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifat va samaradorligini oshirish, shifoxona muassasalarini zamonaviy tibbiyot asbob-anjomlar bilan ta'minlash, sifatli dori-darmonlar bilan davolash, shoshilinch tez tibbiy yordam va birlamchi tibbiyot tizimini yanada yaxshilash, xususiy sektor va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish borasida qator vazifalar belgilangan.

Hukumatimiz tomonidan sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga qaratilgan qator qaror va farmoyishlar qabul qilinib, ular amaliyotga tadbqiq etib borilmoqda.

Olib borilayotgan islohatlarda tibbiyot xodimlarining bilim va malakasi alohida o'rin egallaydi. Kiritilayotgan investitsiyalardan amaliyotda samarali foydalanish uchun sohaga yetuk kadrlar talab etiladi. Bu borada rivojlangan davlatlarning soha mutaxassisleri bilan tajriba almashish ham ijobiy samara bermoqda.

Soliqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistik ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.





ANDIJON VILOYATIDA 2022-YIL YAKUNI BO'YICHA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan shifoxona muassasalari soni 162 tani tashkil etdi. Ularda bemorlar uchun ajratilgan o'rinlar soni 14 390 tadan iborat. Faoliyat ko'rsatayotgan jami shifoxona muassasalaridan 123 tasi yoki 75,9 % kichik biznes sub'yektlari hisoblanadi.


Shifoxona muassasalari soni o'tgan 2017-yil bilan taqqoslaganda 26 taga ko'paygan.



Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA SHIFOXONA MUASSASALARI SONI, (birlik)



Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan shifoxona muassasalari soni 162 tadan iborat bo'lib, ular soni o'tgan 2021-yilga nisbatan 5 taga ko'paygan.

Andijon shahrida shifoxona muassasalari soni 68 tani tashkil etgan holda viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.

★ 2021-yil

★ 2022-yil



AMBULATORIYA –POLIKLINIKA MUASSASALARI SONI, (birlik)


Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha 577 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat olib borgan. Ulardan 104 tasi qishloq vrachlik punktlari hisoblanadi. Yil davomida ularga qatnov qilgan bemorlar soni 2698,7 ming nafarni tashkil etdi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati, bir smenada qatnovlar soni 43,9 ming birlikni tashkil etdi. O'tgan 2021- yilga nisbatan ular soni 46 taga ko'paygan.

Andijon sh - 151
Xonobod sh - 8
Oltinko'l - 31
Andijon - 37
Asaka - 52
Baliqchi - 33
Bo'ston - 14
Buloq boshi - 17



Jalaquduq - 25
Izboskan - 36
Qo'rg'ontepa - 39
Marhamat - 31
Paxtaobod - 23
Ulug'nor - 11
Xo'jaobod - 44
Shahrixon - 25

AMBULATORIYA –POLIKLINIKA MUASSASALARIDA QAYD QILINGAN KASALLIKLAR SONI, %




Ambulatoriya-poliklinika muassasalarida 2022-yil davomida jami 2328,7 ming kasalliklar qayd etildi. Ulardan 18 va undan yuqori yoshdagilar soni 64,0 % ni, 15-17-yoshdagilar 7,8 % ni, 14-yoshdagilar 28,2 % ni tashkil etdi.

- ★ 18 va undan katta yoshdagilar
- ★ 15-17 yosh
- ★ 14 yosh



AMBULATORIYA –POLIKLINIKA MUASSASALARI SONI, (birlik)



2022-yil yakuni bo'yicha viloyatdagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni 577 tadan iborat bo'lib, o'tgan 2018-yil bilan taqqoslaganda ular soni 149 taga yoki 34,8 % ga ko'paygan.


Ambulatoriya-poliklinika muassasalari ning 151 tasi viloyat markazi Andijon shahrida joylashgan bo'lib eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan.

Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA TIBBIYOT XODIMLARI SONI, (nafar)

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha sog'liqni saqlash muassasalarida xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlari soni 41 440 nafardan iborat bo'lib, ulardan 8 275 nafari yoki 20,0 % ni shifokorlar va qolgan 33 165 nafarini yoki 80,0 % ni o'rta tibbiyot xodimlari tashkil etdi.



★ O'rta tibbiyot xodimlari soni

★ Shifokorlar soni

Sog'liqni saqlash muassasalarida xizmat qilayotgangan jami 41 440 nafar tibbiyot xodimlari sonini o'tgan 2018–yil bilan taqqoslasak ular soni 5 358 nafarga yoki 14,8 % ga ko'payganligini kuzatish mumkin.



2018-y



2019-y



2020-y



2021-y



2022-y

Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA SHIFOKOR XODIMLAR SONI, (nafar)

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha tibbiyot muassasalarida jami 8 275 nafar shifokorlar xizmat ko'rsatgan. Jami shifokorlardan 3452 nafari yoki 58,3 % ni erkak va qolgan 3643 nafari yoki 41,7 % ni ayol shifokorlar tashkil etadi.

Jami shifokorlardan 1399 nafari kichik biznes sub'yektlarida faoliyat olib boradi. Ulardan 434 nafari ayol shifokorlardan iborat




Erkak shifokorlar – 58,3 %



Ayol shifokorlar – 41,7%


2022-yil yakuni bo'yicha sog'liqni saqlash muassasalarida o'z faoliyatini olib borayotgan jami 8275 nafar shifokorlar sonini o'tgan 2018-yil bilan taqqoslasak ular soni 943 nafarga yoki 12,9 % ga ko'payganligini kuzatish mumkin.



Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA SHAHAR VA TUMANLAR KESIMIDA SHIFOKOR XODIMLAR SONI, (nafar)



Andijon viloyati sog'liqni saqlash muassasalarida 2022-yil yakuni bo'yicha xizmat qilayotgan 8 275 nafar shifokorlardan 4 227 nafari yoki 51,1 % viloyat markazi Andijon shahrida faoliyat olib boradilar va eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. Bo'ston timanida esa shifokorlar soni 68 nafardan iborat bo'lib, viloyat bo'yicha eng past ko'rsatkich hisoblanadi.



★ Erkak shifokorlar
★ Ayol shifokorlar



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA O'RTA TIBBIYOT XODIMLARI SONI, (nafar)

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni 33 165 nafarni tashkil etdi.

O'rta tibbiyot xodimlaridan 27102 nafari (81,7 %) ayollar va qolgan 6063 nafari yoki 18,3 % erkaklardan iborat.

Viloyatda tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'yektlarida 2022-yil yakuni bo'yicha 1029 nafar o'rta tibbiyot xodimlari aholiga xizmat ko'rsatgan.

O'rta tibbiyot xodimlarining soni o'tgan 2018-yil bilan taqqoslaganda 4415 nafarga, yoki 15,4 % ga ko'paygan.



★ 2018-y

★ 2019-y

★ 2020-y

★ 2021-y


★ 2022-y



Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA O'RTA TIBBIYOT XODIMLARI SONI, (nafar)



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan 33165 nafar o'rta tibbiyot xodimlaridan 145 nafari oliy hamshiralik ma'lumotiga ega.

Jami o'rta tibbiyot xodimlaridan 11713 nafari (35,3 %) viloyat markazi Andijon shahridagi tibbiyot muassasalarida xizmat qilgan holda eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Xonobod shahrida ular soni 560 nafardan iborat bo'lib eng past ko'rsatkich hisoblanadi.




Ma'lumot uchun:

O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga – sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, go'daklar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'rta maxsus tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan barcha shaxslar kiradi.

Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA O'RTA TIBBIYOT XODIMLARINING MUTAXASSISLIKLAR BO'YICHA SONI, %



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan jami 33 165 nafar o'rta tibbiyot xodimlaridan mutaxassisligi bo'yicha 81,7 % ni hamshiralar, doylar va laborantlar 5,4 % ni, feldsherlar 3,0 % ni, sanitar shifokorlar va epidemiolog yordamchilari 1,4 % ni, sanitariya feldsherlari 0,8 % ni, yordamchi dezinfektorlar 0,5 % ni va boshqa mutaxassislik bo'yicha xodimlar 1,8 % ni tashkil etdi.



2022-YIL YAKUNI BO'YICHA TEZ TIBBIY YORDAM FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2022-yil yakini bo'yicha tez tibbiy yordam stansiyalari va bo'linmalari soni 145 tani tashkil etdi. Yil davomida aholi tomonidan 1409,1 mingta chaqiriqlar bo'lgan. Jami 3011,7 ming nafar bemorlarga tez tibbiy yordam xizmati ko'rsatildi.



TEZ TIBBIY YORDAM KO'RSATILGAN SHAXSLAR SONI, (ming kishi)


Andijon sh - 219,7
Xonobod sh - 23,4
Oltinko'l - 70,3
Andijon - 139,3
Asaka - 163,1
Baliqchi - 121,4
Bo'ston - 28,1
Buloq boshi - 87,1



Jalaquduq - 93,5
Izboskan - 94,1
Qo'g'ontepa - 89,2
Marhamat - 84,4
Paxtaobod - 107,9
Ulug'nor - 28,4
Xo'jaobod - 63,7
Shaxrixon - 105,0




KASALLIKLARNING ASOSIY SINFLARI BO'YICHA AHOLINING KASALLIKLARGA CHALINISHI, (ming nafar)




2022-yil yakuni bo'yicha Andijon viloyati aholisining asosiy sinflar bo'yicha kasalliklarga chalinishi (birinchi marta tashxis aniqlangan holatlar soni) 2328,7 ming nafarni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan 2021-yil bilan taqqoslaganda 116,4 ming nafarga yoki 5,3% ga o'sganligini kuzatish mumkin.

Viloyat bo'yicha jami aholining kasallanish holatlaridan Andijon shahri aholisining ulushi 26,1 % ga, Shahrixon tumaning ulushi 9,5 % ga va Asaka tumanining ulushi 7,8 % teng bo'lib, viloyatdagi eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdilar.





KASALLIKLARNING ASOSIY SINFLARI BO'YICHA AHOLINING KASALLIKLARGA CHALINISHI, %



- Nafas olish kasalliklari
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari
- Qon va qon yaratish kasalliklari
- Boshqa turdagi kasalliklar
- Siydik-tanosil tizimi kasalliklari
- Qon aylanish tizimi kasalliklari
- Jarohatlanish, zaharlanish kasalliklari
- Homiladorlik, tug'ruq va undan keyingi asoratlar
- Asab tizimi kasalliklari
- Ba'zi yuqumli va parazitlar kasalliklari
- Ko'z kasalliklari
- Endokrin tizimi kasalliklari
- Teri va teri osti to'qimasi kasalliklari
- Quloq kasalliklari
- Suyak-mushak tizimi kasalliklari

Aholi o'rtasida jami kasallanish holatlari ichida eng yuqori o'rinlarda nafas olish a'zolari kasalliklari 20,3 % ni, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 14,2 % ni, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar kasalliklari 12,3 % ni tashkil etgan.





STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tibbiyot muassasalari tarmog'iga shifoxona va ambulatoriyapoliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

Shifoxona muassasi – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Aholining kasallanishi - yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

Birlamchi kasallanish - bemorga hayotida birinchi marotaba tashxisi aniqlanganda ro'yxatga olinadi. Kasallanish darajasi - birinchi marotaba tashxisi aniqlangan bemorlar sonini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga nisbati.

Bemorlar kontingenti – joriy hamda o'tgan yillarda tibbiyot muassasalariga murojaat etgan va kasallikga chalingan barcha shaxslar kiradi. Mazkur ko'rsatkich yil oxirida sog'liqni saqlash muassasalari hisobida turgan bemorlarni yil oxiridagi doimiy aholi soniga bo'linishi orqali hisoblanadi.

Tibbiyot xodimlarining soniga barcha ixtisoslik va turdagi tibbiyot muassasalarining (tibbiy yordam ko'rsatuvchi xususiy muassasalarni qo'shgan holda) shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari kiritiladi. Shifokorlarning umumiy soniga sog'liqni saqlash muassasalarida, sanatoriy-kurort muassasalarida, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarida, ilmiy tadqiqot institutlarida, sog'liqni saqlashning boshqaruv organi apparatida ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotga ega barcha mutaxassislar kiradi.



PRESS-RELIZNI TAYYORLASH UCHUN MAS'UL:



Andijon viloyati statistika boshqarmasi



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



***Manzil: Andijon shahar
Milliy tiklanish ko'cha-36 a***



Телефон : (74) 228-48-51



www.andstat.uz

